

Adabiy ta'limda badiiy asar matni ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar

Malika Jazilova Bekmirzayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
o'qituvchisi
malikazazilova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy ta'limda badiiy asar matni ustida ishlash va o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning nutqini o'stirish vositalaridan biri bu qayta hikoyalash va badiiy matnlar mazmunini tahlil qilish, tez ongli ifodali o'qish malakasini shakllantirish jarayonlari e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: Matn, badiiy matn, nutqni o'stirish, og'zaki bayon, temantik, obraz, syujet chizig'i.

Hozirgi kunda adabiy ta'limda badiiy asar matni ustida ishlashning muhim pedagogik psixologik xususiyatlaridan biri sifatida o'quvchilar nutqini o'stirish badiiy asar matniga qiziqтира olish va unga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritib, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullaridan foydalanish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Dastlabki matn ustida ishlashdan oldin matnni turli xil usullarda o'qitishga e'tibor qaratish lozim. O'qish turlari va ularning xususiyatlari, o'qishning adabiy ta'limdagi ahamiyati haqida quyidagi o'qish turlarini ko'rsatish mumkin. O'qish o'zi nima? O'qish orqali yozilgan matn bilan tanishish, uni tushunish va o'zlashtirishga qaratilgan nutqiy faoliyatning bir turi bo'lib shaxslar aro kommunikativ faoliyat sohasiga daxldor. O'qish jarayonida o'qiganlarini tushunish o'qish texnikasi bilan bog'liq holda maqsad va manbaani anglatadi. Shu singari o'qish turlarini berib o'tganlar biz matn ustida ishlashdan oldin shu o'qishlardan matnga mos o'qish turini tanlab olishimiz kerak. Badiiy asarni o'qish o'zicha holi hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi nimani o'qish va o'qiganini qanday tushunishdir. Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir deydi S.Matjonov.¹ Har bir insonning ma'naviy va moddiy to'kislik sari intilishi, o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lishi, jamiyatda o'z o'rnini topa olishi uchun,

¹ Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi.T. "O'qituvchi"

kerakli xulosalarni chiqarish bilan ahamiyatlidir. Shu orqali inson ma'naviyatining yuksalishiga uning yaxshi sifatlar bilan to'yintirishda badiiy asarlarning o'qitilishi muhim ahamiyatga ega. Maktabda ta'lim olayotgan ta'lim va tarbiya oluvchilar ya'ni o'quvchilar dars jarayoning haqiqiy ma'noda ijrochisiga aylantirish zarur. Bu ma'naviy barkamollikga yo'l ochadi deb o'ylayman. Bu imkoniyatni adabiyot o'qituvchisi bevosita badiiy asarlar orqali amalga oshira oladi. Chunki badiiy asar insonning tafakkuri, asar mazmunini ongli idrok etishi va uni tahlil qila olishi va ta'sir ko'rsata olishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun har bir inson balki xalqning ham dunyo qarashini, fikrini atrofda jamiyati olam va odam to'g'risida o'ylab ko'rishga va o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirishga yordam beruvchi vosita hisoblanadi. Bu esa bevosita adabiyot orqali amalga oshiriladi har qanday badiiy asarda qisman yoki to'liq tarzda ijtimoiy munosabatlar, turmush muommolari, inson, uning tabiat va jamiyat munosabatlari aks etadi. Badiiy asarda borliqni, boqiylikni, obrazlar vositasida tasvirlash obektiv mazmun subektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Adabiy ta'limda badiiy asar ustida ishlashning pedagogik psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. 5-7 sinf o'quvchilari badiiy matni tahlil qilishda axloqiy sifatleri ichki dunyosi, xarakteridan kelib chiqib turli xil fikr va xulosalarni berish mumkin ya'ni qahramonning biror bir fazilatiga tayanib shaxsni baholaydi. Bu yoshdagi maktab o'quvchilari orasida ko'proq fikrini bayon etishida birozgina chalkashliklar bo'lishi mumkin. Bu davrda ular darsda bajariladigan savol va topshiriqlarni bajarishdan qochadilar. Chunki darslikdagi ko'plab badiiy matnlar savol va topshiriqlardan iborat. Bu bosqichda o'quvchilar bilimlarini o'ta maydalangan tayyor holda qabul qilib bajarishni xohlamaydilar. Ko'proq mustaqil fikrini aytish istagi ko'proq bilinadi. Shu orqali sekin – sekin mustaqil fikrlash, fikrni dalillar orqali isbotlashga harakat qiladilar va shu orqali 6-7 sinflarga o'tib o'quvchilarda mustaqil fikrning shakllanishi toboro ortib boradi. Boshlang'ich sinfdagi intizomdan ko'ra bu yoshda ko'proq o'zi uchun qiziqarli bo'lgan narsalarga sarflashni yaxshi ko'radi. Ya'ni har bir topshiriqni mustaqil bajarishga moyillik kuchli bo'ladi. Bu davrda o'quvchini avvalgi bosqichlarda uchramagan topshiriqlar ruhlantiradi. Shuning uchun matn ustida ishlashning turli yangi pedtsehtnologiyalardan foydalanib darsni tashkil qilish, qiziqishlarni inobatga olib topshiriqlar tuzilsa o'quvchilarda o'z fikrini tushunarli bayon qilish malakasi toboro ortib boradi. Buni o'qituvchi hayotiy misollar orqali tushuntirsa, darsliklarda o'quvchilarning tabiati va yosh xususiyatlariga mos keladigan

qiziqarli materiallar berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etilayotgan savol va topshiriqlar biri ikkinchisiga o‘xshamaydigan tarzda bo‘lishi o‘quvchilarni matn ustida ishlashga bo‘lgan qiziqishlarini faollashtiradi.

Adabiy ta’limda badiiy asar matni ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari alohida e’tiborga olingan holda ta’lim bosqichlari ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari 1-bosqich boshlang‘ich ta’lim (1-4-sinflar) 2-bosqich umumiy o‘rta ta’lim (5-9-sinflar) Biz bilamizki, boshlang‘ich ta’limda bolalar 6-7 yoshda qabul qilinadilar. Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasi umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik bilim va ko‘nikmalarini shakllashtirishdan iboratdir. Bu davrda aynan o‘qish darslarida o‘quvchilarni yoshiga mos kichik-kichik matnlar berib boriladi. Boshlang‘ich sinfdan aynan matnlarda tushunarsiz so‘zlar alohida lug‘at tarzida umumlashtirib tushuntiriladi. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish vositalaridan biri bu qayta hikoyalash va badiiy matnlar mazmunini tahlil qilish, tez ongli ifodali o‘qish malakasini shakllantirish jarayonlari e’tiboga olinadi. Har qanday badiiy matn g‘oyaviy – temantik asoslarini uning obrazlarini, syujet chizig‘ini, qurilish va tasviri vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishi va nutqining o‘shini taminlaydi. O‘quvchi matn bilan tanishish matn ustida ishlash orqali hayotiy tajribasiga tayanib asar mazmunini ongli idrok etish va tahlil qilish zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Badiiy matn sinfda o‘quvchilar bilan birga o‘qish bilish faoliyatini aktivlashtiradi va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirishga yordam beradi. Badiiy matnni tahlil qilishda uning hissiy tasirini ham inobatga olish zarur. Birinchi o‘quvchilar nimaga e’tibor berish kerak? O‘qituvchi asarni o‘qiyotganda o‘qib va eshitibgina qolmay muallif hayojonlangan voqeadan hayojonlana olish estetik didni shakllantira olish darajasiga yetkazib hikoya qilib bera olishi zarur. Badiiy matn ustida ishlashda muallifni asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o‘qituvchining diqqat markazida turadi. Bu esa o‘qituvchidan pedagogik-psixologik xususiyatlar shakllangan bo‘lishi o‘z kasbini sevishi va o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib matn ustida ishlashda turli xil medodlardan foydalanishi kerak. Ikkinchi tomondan esa har qanday badiiy asardan aniq tarixiy voqealar tasvirlanadi. O‘qituvchi o‘sha voqealarga tarixiy yondosha olsagina asarga haqqoniy baho bera olishi mumkin. Uchinchidan esa yozuvchining hayoti va ijodi qarashlari haqida o‘quvchilarga yoshlarga mos tarzda tushuntirib o‘tish maqsadga muvofiq. Keyin esa sekin sekin yuqori sinflarga o‘tish jarayonida

asarning g'oyaviy tomonlarini tushuntirishga yo'naltirish mumkin. Keyingi bosqich umumiy o'rta ta'lim bosqichi 5-9-sinflarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda umumiy o'rta ta'lim doirasida bolalarning qobiliyat va istedodlarini rivojlantirish maqsadida muayyan yo'nalishlarda sport, tasviriy san'at, shuningdek, ijtimoiy gumanitar va tarbiyaviy fan yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berila boshlaydi. Aynan adabiyot darslariga nazar tashlaydigan bo'lsak bu yoshda hajmi kattaroq va mustaqil fikrlashga ko'proq yondashilgan va ko'nikmalarini rivojlantira oladigan tarbiyaviy ahamiyatga ko'proq e'tibor qaratilgan matnlar berila boshlaydi. Biz bu haqida keyingi yuqori sinflarini adabiyot darslarida matn ustida ishlashning mavjud tahlili qismida kengroq to'xtalib o'tamiz. Adabiy ta'limda badiiy asar matni ustida ishlashda bir necha xususiyatlarini inobatga oladigan bo'lsak avvalambor bu pedagogik-psixologik yondoshuvni talab qiladi. Bu esa bevosita umumiy pedagogika bilan bog'liq holda o'rganilishi va pedagogdan har tomonlama o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uning intellektual, ma'naviy axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlantirishga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlarini shuningdek, bolaning fizialogik psixologik jihatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Umumiy pedagogika maktab yoshidagi bolalarni tabiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi. Undan tashqari o'quvchilarga ta'lim berishda bolaning ongi, xulqi, fe'l atvori, xarakteri, qiziqishlarini inobatga olgan holda amalga oshirilsa har qanday badiiy matn ustida ishlashda olgan xulosalaridan estetik tarbiya ola oladi.

Estetik tabiya bu lotincha (estezio) go'zallikni xis qilish o'quvchilarni voqiylik, tabiat, ishtimoiy mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularni badiiy didini o'stirish ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobilyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgani pedagogik jarayon. Bunga biz qanday erishishimiz mumkin. Albatta badiiy asar matni ustida ishlash uni tahlil qilish orqali erisha olamiz. Bu esa adabiy ta'limda badiiy asar ustida ishlashning pedagogik psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Ta'limning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Avvalo, o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtalaylik. Bu munosabat diqqatda,

his-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.²

Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Bunga bevosita o'qituvchi pedagogik-psixologik qobiliyatini ishga solish kerak. Hozirgi zamon talablari darslarni zamonaviy ko'rgazmali qurollardan foydalanib axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darsni tashkil etish orqali, o'quvchilar diqqatini yuzaga chiqarishi mumkin. Ya'ni darsni tashkil etishda ta'lim beruvchining asosiy vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirish emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materiallarni idrok etishga tayyorliklarini tashkil etish va kuzatishdir. Darsda o'quvchilarni diqqati tez tez o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni alohida e'tiborga olish, o'quvchilar diqqatini materialni asosiy jihatiga jalb eta olishi va takrorlashi kerak. Bu esa darsni samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga bog'liq. O'quvchilar hamma ma'lumotlarni xotirasida saqlab qolishi qiyin. O'qituvchining asosiy ro'li shundaki, u o'quvchilarga tegishli bilimni hosil qilishi, nimani vaqtincha esda saqlab qolishi kerakligini, nimani esa butunlay esda saqlab qolmasdan faqat tushunib olish kifoya qilishini, va nimani so'zma – so'z esda saqlab qolish zarurligini ko'rsatib o'tish lozim.

Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik xolatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o'zlashtirib oladilar. O'tkazilgan tajribalar o'quvchilar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi.³

O'qituvchi bu jihatlarga alohida e'tibor qaratishi kerak. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida g'amxo'rlik qilishi lozim. Borgan sari ta'lim mazmuni kattalashib borgan sari o'zlashtirishga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyati kuchaytirilishi lozim. Buni esa o'qituvchi darsliklarda berilgan matnlarga qiziqish uyg'otish, kerakli joylaridan sitatalar orqali yoritish o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishlarini, bilishga

² Доц. Ф.А. Акрамова, Н.Х.Лутфуллаева, Х.Р.Хайдарова «Педагогик психология» фани (маърузалар матни). -Т.: ТДИУ, 2005-2016ет.

³ Доц. Ф.А. Акрамова, Н.Х.Лутфуллаева, Х.Р.Хайдарова «Педагогик психология» фани (маърузалар матни). -Т.: ТДИУ, 2005-2016ет

intilishlarini kuchaytirib borish zarur. Qiziqish o'quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni biror faoliyatni tanlashi va unga nisbatan munosabati orqali erishish mumkin.

Ma'lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o'quvchilarning ta'lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga aktiv munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilar hayotida katta ro'l o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar - motivlaridir.⁴

O'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqitira olish matn ustida ishlash orqali fanni va o'qilayotgan badiiy matni yaxshiroq anglashlari o'zlashtirishlari, aqliy qobiliyatlarini o'sishiga bilim doirasini kengaytirishga o'z fikrlarini mustaqil bayon etishga estetik zavq olishga va badiiy asarlarga qiziqitirib o'qishdan chalg'itadigan narsalar bilan shug'ullanishidan o'zini tiya olishi hamda kitobxonlikni rivojlantirishda muhim vosita deb bilaman. Berilgan badiiy asarning yoki materialning o'zlashtirishi ko'p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga ham bog'liqdir. Irodaviy aktivlik esa ta'limning zarur shartlaridan biridir. Ta'lim jarayonining o'zi o'quvchilarda irodaviy o'sish va bu orqali o'quvchilarning kundalik rejimi o'qish va vaqtini oqilona sarflashga o'rgatadi. Bilamizki, 5-sinf o'quvchilarida jismoniy psixologik va ijtimoiy faollik ustun bo'ladi. Qiziqishlari yuqori muntazam ravishda ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj uning atrof muhitdagi narsalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini bildirishga qiziqadilar. Bu jarayonda o'quvchilar bevosita o'qituvchiga suyanadi. O'quvchilar uchun esa o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy shaxs hisoblanib bu holat uning nafaqat sinfdagi balki tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlariga hatto oila munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv va bilim saviyasining oshishi bevosita o'quvchi va o'qituvchining o'zoro o'quv faoliyatida birlashib ishlash uslubi muhim ahamyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarda bevosita adabiyot darslarida badiiy matn ustida ishlash va o'quvchilarni matn ustida ishlash texnologiyalarini joriy etib o'quvchilarni fikrlash doirasini og'zaki savodxonligi va

⁴ Доц. Ф.А. Акрамова, Н.Х.Лутфуллаева, Х.Р.Хайдарова «Педагогик психология» фани (маърузалар матни). -Т.: ТДИУ, 2005-2016ет.

badiiy asarni tushunishga sehr- jozibasidan bahra olishga erishish mumkin. Afsuski, adabiy ta'lim tizimida matn ustida ishlashga juda kam e'tibor beriladi. Matndan keyin berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlashga unchalik e'tibor qaratilmaydi. Lekin har qanday asarni san'at hodisasi sifatida qabul qilish matni ustida ishlashdek mashaqqatli ijodiy vazifa turadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar tavsiyalar orqali shunday xulosaga kelish mumkinki badiiy asar matni ustida ishlash juda muhim bo'lgan bosqich hisoblanadi. Chunki har qanday asarni mazmun mohiyatini o'zlashtirish uning matni bilan tanishishdan ya'ni o'qishdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Доц. Ф.А. Акрамова, Н.Х.Лутфуллаева, Х.Р.Хайдарова «Педагогик психология» фани (маърузалар матни). -Т.: ТДИУ, 2005-2016ет.
2. Safo.Matchon, Kitob o'qishni bilasizmi.T. “ O'qituvchi “